



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ольга Кобзева БАРОНЫ РИХТГОФЕНЫ: ИСТОРИКИ И ГЕОГРАФЫ.....	5
2. Oybek Rashidov O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI.....	15
3. Sevara Pulatova O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA.....	21
4. Ойдин Маннопова ПЕРИОД СТАБИЛИЗАЦИИ И РОСТА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ (2000 – 2008 гг.).....	27
5. Faxriddin Yormatov ALISHER NAVOIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI VA DIPLOMATIK QARASHLARI.....	32
6. Feruza Atajanova OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.....	37
7. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	42
8. Muslima Bazarova O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHDA BANKLARNING O‘RNI.....	49
9. Diyora Chorshanbiyeva YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI.....	56
10. Муродилла Хайдаров ФРЕДЕРИК СТАПП [1] МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ... [2].....	62
11. Xamro Rahmonov O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI.....	69
12. Umrbek Salayev QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI.....	75



Oybek Rasulovich Rashidov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
tarix fanlari doktori (DSc), professor

O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI

For citation: Oybek R. Rashidov. THE FORMATION OF THE UZBEK SSR. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18700925>

ANNOTATSIYA

Maqolada bolsheviklarning Turkiston o‘lkasini parchalash siyosati bo‘lgan milliy-hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi hamda O‘zbekiston SSRning tashkil etilishi bilan bog‘liq muhim jihatlar yoritilgan. Shuningdek O‘zbekiston SSRning poytaxni Samarqand shahriga hukumat idoralarining ko‘chib borishi hamda joylashishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar ham keltirilgan. Turkistonda sovet namunasidagi milliy respublikalar markazning xomashyo yetkazib beruvchi hududlariga aylantirilganligi tarixiy tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: mustamlaka, bolsheviklar, milliy-hududiy chegaralanish, milliy siyosat, millatchi, totalitar, demografiya, statistika, davlat apparati va boshqaruv muassasalari.

Ойбек Расулович Рашидов,
Ташкентский государственный экономический университет
доктор исторических наук (DSc), профессор

ОБРАЗОВАНИЕ УЗБЕКСКОЙ ССР

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются важные аспекты проведения национально-территориального размежевания, являвшегося частью политики большевиков по разделению Туркестанского края, и процесса образования Узбекской ССР. Также приводятся сведения о перемещении и размещении правительственных учреждений в город Самарканд – столицу Узбекской ССР. В статье проводится исторический анализ превращения национальных республик советского образца в Туркестане в сырьевые регионы центра.

Ключевые слова: колония, большевики, национально-территориальное размежевание, национальная политика, национализм, тоталитаризм, демография, статистика, государственный аппарат и органы управления.

Rashidov Oybek Rasulovich,
Tashkent State University of Economics,
Doctor of Historical Sciences (DSc), Professor

THE FORMATION OF THE UZBEK SSR

ABSTRACT

The article examines key aspects of the national-territorial delimitation, which was part of the Bolsheviks' policy aimed at disintegrating the Turkestan region, as well as the process of establishing the Uzbek Soviet Socialist Republic. It also provides information on the relocation and placement of government institutions in Samarkand, which became the capital of the Uzbek SSR. Furthermore, the article offers a historical analysis of how Soviet-style national republics in Turkestan were transformed into raw-material-supplying regions for the central authorities.

Index Terms: colony, Bolsheviks, national-territorial delimitation, national policy, nationalism, totalitarianism, demography, statistics, state apparatus and administrative institutions.

1. Dolzarbligi. 1920-yil boshlarida Turkkommissiya raisi Ya.Rudzutak tomonidan Turkiston ASSRni bo'lib tashlash va til belgisiga qarab muxtor (avtonom) respublikalar tuzish masalasi qo'yildi. Bu taklif bolsheviklar yetakchisi V.I.Lenin tomonidan qo'llab-quvvatlanib, u Turkiston o'lkasining "Uzbekiya, Kirgiziya, Turkmaniya"ga bo'lingan kartasini tuzish haqida ko'rsatma berdi. Milliy respublikalar tuzish g'oyasi tashabbuskorlari bu masalani mahalliy xalqlar hayotidagi tengsizlik, milliy mojarolarning kuchayib borayotgani haqidagi soxta omillar bilan asoslashga harakat qildilar. Bolsheviklar O'rta Osiyo xalqlarining asrlar osha yashab kelgan hududiy-geografik birliklar doirasidagi keyingi taraqqiyotini shubha ostiga qo'ydilar.

Turkkommissiya va Ya.Rudzutak tezislari qarama-qarshi o'laroq, Turar Risqulov va bir guruh milliy yetakchilar 1920-yilning o'zida turkiyzabon xalqlarning yagonaligi, ularning tarixiy ildizlari, dini, an'analari va madaniyatining mushtarakligi, Turkistonni alohida qismlarga ajratib bo'lmashligi kabi hayotiy g'oyalarni himoya qilib chiqdilar. Biroq bu fikrlar bolsheviklar tasarrufidagi Markaz tomonidan inkor etilib, T.Risqulov "o'ng og'machilik" (pravotsentrizm), millatchilik va panturkizmga ayblandi, unga bo'htonlar yog'dirildi.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Sovet davrida yaratilgan tarixiy adabiyotlar kommunistik mafkura ta'sirida yozilganligi sababli bolsheviklarning milliy siyosati o'zining haqiqiy bahosini topmagan edi. Shu sababli tadqiqotda arxiv hujjatlari va materiallari, nashr qilingan hujjat va materiallar to'plamlari, davriy matbuot materiallari, davlat arboblarning nutqlari hamda xotira va esdaliklaridan foydalanildi. Tarixshunosligi masalalarida esa sovet va mustaqillik yillarida yozilgan tarixiy, falsafiy va adabiy kitoblar, dissertatsiyalar hamda xorijda nashr etilgan adabiyotlar ham ilmiy muomalaga tortildi.

3. Tadqiqot natijalari. O'rta Osiyoni milliy jumhuriyatlarga bo'lish masalasi o'rtaga tashlangach, mahalliy ziyolilar turli-tuman savollar va murojaatlar bilan chiqa boshladilar. "Milliy-hududiy chegaralanish Turkiston doirasida bo'ladimi yoki O'rta Osiyo masshtabidami? Milliy jumhuriyatlar bo'lgach uni birlashtiradigan Markaz masalasi qanday hal bo'ladi? O'rta Osiyo federatsiyasi kerakmi? Jumhuriyatlar ittifoq (SSSR)ga yoki Rusiya sho'ro jumhuriyatiga bog'lanadimi? Milliy jumhuriyatlar bevosita Markazga bog'lansa, millatlar orasida iqtisodiy aloqa qanday bo'ladi? Bo'linish tartiblari va qirg'iz, qozoqlar Qozog'istonga qo'shiladimi yoki alohida jumhuriyat bo'ladimi? Turkmanlar, Xorazm va Buxoro turkmanlarini birlashtiradimi? Tojik, qirg'iz avtonomiyasi qanday tuziladi? Buxoro va Xorazm o'zbeklari qanday fikrda" degan savollar o'sha davr ruhiyatini ifodalagan hayotiy so'roqlarni tashkil etgan.

1924-yil 4-iyun kuni Moskvada komfirqaning XIII qurultoyi bo'lib, unda Turkiston vakili sifatida S.Xo'janov ishtirok etgan. Qurultoyda O'rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishiga doir muhim masalalar ham muhokama qilingan. Eng asosiysi, milliy respublikalar tashkil topgach, O'rta Osiyo o'lkalari birlashib, federatsiya tuzilishi masalasi kun tartibiga qo'yilgan. Dastlab qurultoyda O'rta Osiyo byurosi nomidan Ya.Rudzutak ma'ruza qilganidan keyin Turkistondan borgan har bir millat vakillariga so'z berilgan. Afsuski, o'zbek, qozoq, turkman va qirg'iz millatiga mansub vakillar O'rta Osiyoni yagona federatsiyaga birlashtirish vaqti hali kelmaganini ta'kidlab, bunday zaruratni inkor etganlar [1].

Fayzulla Xo'jayev ham Turkiston o'lkasining milliy-hududiy chegaralanishi yuzasidan o'zining bir necha maqolalarini e'lon qildi. Bu hususda, jumladan, shunday degan edi: "Sho'rolar O'rta Osiyosini milliy chegaralarga bo'lish to'g'risida amaliy suratda ishlanadigan masala siyosiy,

madaniy va iqtisodiy jihatdan juda katta ahamiyatga molikdir. O‘zbek va Turkman jumhuriyatlarini tashkil qilish, qozoq aholisini Qozoqiston jumhuriyatlariga qo‘shish ham qoraqirg‘iz va tojiklarning muxtoriyatlik viloyatlarini ta‘sis qilish ishlari tarixiy milliyat masalasini adolatlik ravishda hal qilishdir. Shul sababli mehnatkash xalq milliy jumhuriyatlarga bo‘linish ishiga qattiq kirishdi. Sho‘ro jumhuriyatlari ittifoqiga kiradigan mustaqil o‘zbek jumhuriyatining ta‘sis qilinishi Buxoro mehnatkashlari tomonidan sevilib qarshi olindi” [2].

Bolsheviklarning Turkiston mintaqasida milliy chegaralashni amalga oshirishdan bosh maqsadi, shubhasiz o‘lkani xomashyo yetkazib beruvchi hududiy birliklarga aylantirish bo‘lgan. Hatto, O‘rta Osiyoda milliy chegaralanish jarayoni ketayotgan bir paytda xomashyo va xo‘jalikka qarab yirik shirkatlar tuzish loyihasi allaqachon tuzilgan edi. Bu shirkatlarning biri “rus-o‘zbek shirkati” va ikkinchisi “rus-turkman shirkati” hisoblangan. “Rus-o‘zbek shirkati” hay‘atiga O‘zbekiston jumhuriyati bilan birga qozoq, qora qirg‘iz, tojik rayonlari hamda sobiq Buxoro bilan Xorazmning katta qismi kiritildi. Buxoro bilan Xorazmning qolgan qismi “rus-turkman shirkati”ga birlashtirildi [3].

Shunday qilib, Turkiston, Buxoro, Xorazm sovet respublikalari 1924-yil noyabrda bo‘lib o‘tgan maxsus sessiyalarida o‘z-o‘zini tarqatib yuborish to‘g‘risidagi qarorini qabul qildi. Shu yilning 31-oktabrida O‘zbekiston SSR tuzilishini boshqarish uchun Inqilobiy qo‘mita (Revmom) ta‘sis etildi. O‘rta Osiyo respublikalarining milliy davlat chegaralanishi nihoyasiga yetishi bilan Turkiston mintaqasidagi qayd etilgan respublikalar Sovetlari Ijroiya Komitetlari o‘zlarining vakolatlarini Fayzulla Xo‘jayev raisligidagi inqilobiy qo‘mita – O‘zbekiston SSRning muvaqqat ishchi-dehqon hukumatiga topshirdilar. Mazkur qo‘mita 1924-yil 5-dekabrda O‘zbekiston SSRning tashkil topganligini e‘lon qilgan hamda ushbu kuni respublikaning tashkil etilgan sanasi sifatida bayram qilishni belgilagan. Inqilobiy qo‘mita tashabbusi bilan Toshkentda 5-dekabr tantanasini o‘tkazish bo‘yicha maxsus komissiya tuzilib, tadbirni o‘tkazish rejasi ishlab chiqilgan [4]. Bayramga 4-dekabrda hozirlik ko‘rib butun ko‘chalar qizil bayroqlar bilan bezatilgan. 5-dekabr erta soat 9 da Toshkentning Eski juva maydoniga kelgan milliy qizil qo‘shinlar musiqa bilan qarshi olingan. Ketma-ket firqa kasaba tashkilotlari qo‘shchi-batraklar, yoshlar, o‘quvchilar, xotin-qizlar, qizil soqchilar va yangi shahar tashkilotlaridan vakillar o‘z bayroqlari bilan kelib yig‘ilganlar. Majlisni eski shahar firqa rayko‘mi va 5-dekabr tantanasini o‘tkazish komissiyasi nomidan Rahmat Axmadiy musiqaning baynalmillal kuyi ostida ochgan. Ushbu tantanada O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasi nomidan F.Xo‘jayev, Umumrossiya kommunistik partiyasi O‘rta Osiyo byurosi nomidan Zelenskiy va eski shahar ijroqo‘midan Mallaboyevlarning tabrik so‘zlari yo‘llangan [5].

Shuningdek, O‘zbekiston Sovet Respublikasining tuzilganligi munosabati bilan Qozog‘istonning inqilobqo‘m raisi O‘rinboyev va Rossiya kommunistlar firqasi Qozog‘iston muzofot qo‘mitasining tashkilot byurosi mas‘ul kotibi Kurmisovlar O‘zbekiston SSRning muvaqqat ishchi-dehqon hukumati raisi Fayzulla Xo‘jayev nomiga quyidagi tabrikni yo‘llaganlar. “Butun o‘zbek millatining birlashtirgan bayroq ostida mustaqil O‘zbekiston ijtimoiy sho‘rolar jumhuriyatiga birlashgan kunlari bilan O‘zbekistonning butun mehnatkashlarini Siz orqali tabrik qilamiz. Chor hukumatining ham mustabid amirlarning istibdodi ostida mehnatkash o‘zbek xalqi sun‘iy ravishda ajralib bir-biriga dushman qilinib qo‘yilgan edi. Bugun rusiya kommunist – bolsheviklar rahbarligi bilan o‘zlarining zolimliklarini yo‘q qilgan o‘zbek millati bir milliy jumhuriyatga birlashganlarini e‘lon qilib, ovro‘po jahongirlari tomonidan ezilgan sharqning tarixiga katta hodisalar tug‘diradir. Sharqda jahongirlarning zulmi ostidan qutula olmasdan turgan butun millatlar sho‘rolar sharqining shu katta muvaffaqiyatlariga umid bilan qaraydir va undan yordam kutadir. Bizning bugunimiz dasmoyadorlarning zulmi ostida yashamoqda bo‘lgan sharq xalqlarining o‘z dasmoyadorlariga qarshi kurashga ko‘tarilishlariga va milliy chegaralarga bo‘linib milliy jumhuriyatlar tashkil qilish kabi katta hodisalar faqat sho‘rolar mamlakatidagina bo‘lmog‘i mumkindir” [6].

1924-yil 31-dekabrda bo‘lib o‘tgan majlisda O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasining Prezidiumi tarkibi tasdiqlandi. Unga ko‘ra F.Xo‘jayev rais, Gelberg, Dunayev, Rahimboboyev, Xidiraliyev, Ivanov a‘zolar sifatida kiritilgan. Shu kuni O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasi O‘rta Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi, Turkiston ASSR, BSSR, XSSR tugatilishi va taqsimotdan

keyingi natijalar, O‘zbekiston SSRning sovet organlarini jonlantirish uchun komissiya tashkil qilish masalalarini ko‘rib chiqdi [7].

O‘zbekiston SSR Inqilobiy qo‘mitasi Samarqand shahrini respublika markaziga aylantirish borasida aniq rejalar ishlab chiqdi. Samarqand shahrini poytaxt holiga qo‘yish uchun Maxsus Komissiya tuzilib, Saydali Xo‘jayev rais etib tayinlangan [8]. 1924-yil 15-dekabrda Inqilobiy qo‘mitaning yig‘ilishida Maxsus Komissiya a‘zosi Sokolov Samarqand shahriga markaziy muassasalar va xodimlarni ko‘chirish maqsadida bino hamda xonalar qidirib topish topshirig‘ini bajarish bo‘yicha umumiy foydali maydoni 1827 kv. Sajenni [9] tashkil qiluvchi 211 xonadan iborat 19 ta alohida munitsipalizatsiya qilingan bino topilgani haqida ma‘lumot beradi [10]. Mazkur yig‘ilishda Samarqand shahrida hukumat uchun bo‘shatilgan quyidagi binolar ro‘yxati keltiriladi:

kapital ta‘mirlashni talab qiluvchi 10 ta bino, ular ichida Garnizon Klubining binosi;

boshqa maktablarni zichlashtirish yo‘li bilan bo‘shatilgan 3 ta maktab binosi;

komissiya tomonidan mo‘ljallangan bolalarni Toshkentga ko‘chirish yo‘li bilan bo‘shatilayotgan 3 ta bolalar uyi va daydib yurgan bolalar kollektori;

Toshkentdagi Arxiv ishlari bosh boshqarmasiga ko‘chirilgan arxiv byurosi joylashgan bino;

viloyat kasaba uyushmalari markaziy kengashi bilan birlashtirilgan viloyat kasaba kengashi binosi;

mahalliy xo‘jaliklar egallab turgan binolar;

viloyat davlat ijroiya qo‘mitasi (Oblgorispolkom) egallagan binolar [11].

Matbuot materiallarida keltirilgan ma‘lumotlarga qaraganda O‘zbekiston SSRning bo‘lajak poytaxti Samarqandda davlat apparati va boshqaruv muassasalari uchun binolar qurish hamda shaharni obodonlashtirish maqsadida Markaz tomonidan 1 million so‘m mablag‘ ajratilgan [12]. To‘plangan materiallarga tayanib shuni aytish mumkinki, qisqa muddatda (1924-yilning 5-dekabridan – 1925-yilning 3-apreliga qadar) Buxoro va Toshkent shaharlari O‘zbekiston SSRning poytaxti vazifasini bajardi. 1925-yilning 3-aprel kuni O‘zbekiston SSR markaziy hukumati Toshkent bilan xayrlashib, respublikaning yangi poytaxti Samarqandga ko‘chib bordi [13]. Poytaxtning Samarqandga ko‘chib kelishi munosabati bilan shaharda bayram bo‘lib, unda F.Xo‘jayev, Y.Oxunboboyev, I.Xidiraliyev, V.Ivanov va boshqalarning tabrik so‘zlari eshitilgan. Jumladan, Y.Oxunboboyev tabrik so‘zida shunday deyilgan: “O‘zbekiston hukumatining yangi poytaxtga ko‘chib kelishi sho‘ro qurultoyining bir buyrug‘ini ado qilishdir. Poytaxtning Samarqandga ko‘chib kelishi markaziy hukumatning mahalliy muassasalar bilan yaqin bordi-keldi qilishga sabab bo‘lib, aloqani mustahkam qiladi. Bu yerda hukumatning ustiga sho‘ro qurultoyi tomonidan yuklangan vazifalar ishchi va dehqonlarning qatnashishlari bilan qulay bajarilur” [14].

V.Ivanov esa o‘z hayratini yashira olmadi va shunday dedi: “Bu kungacha tarixda hech bir davlatning o‘z poytaxtini yaxshi katta shahardan ko‘ra quyiroq darajada bo‘lgan shaharga ko‘chirgani ko‘rilmagan. Sho‘ro hukumati bo‘lsa o‘z poytaxtini mehnatkashlarga eng yaqin bo‘lgan joyga quradi” [15]. Poytaxt Samarqand shahri xususida 1927-yili qabul qilingan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining 114-moddasida “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining poytaxti Samarqand shahri” [16], deb qayd etilgan.

Shunday qilib, O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o‘tkazilishi natijasida sobiq Turkiston ASSR, BXSRL va XXSRLari o‘rnida O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Tojikiston ASSR (O‘zbekiston SSR tarkibida), Qoraqirg‘iz (Qirg‘iz) viloyati (RSFSR tarkibida) va Qoraqalpog‘iston Avtonom oblasti (Qozog‘iston ASSR tarkibida) tashkil etildi.

O‘rta Osiyo respublikalari tojik muzofoti bilan birlikda O‘zbekiston Respublikasi ham Turkmaniston, qoraqirg‘iz va qoraqalpoq muzofotlari juda katta sathni ishg‘ol qilib, bular shimolda Qirg‘iziston (Qozog‘iston ASSR) sahrolarini, sharqda pomir tog‘lari, janubda Amudaryo va Xuroson tog‘lari va g‘arbda Kaspiy dengizi bilan chegaralangan. Bu respublikalarning eng kattasi va xalqi ko‘pi birinchi o‘rinni tutgani O‘zbekiston ijtimoiy sho‘rolar jumhuriyati hisoblangan. Davriy matbuotda berilgan rasmiy ma‘lumotga ko‘ra O‘zbekiston SSRning maydoni (tojik muzofotidan boshqa) 350 ming murabba’ [17] chaqirim [18] ekanligi qayd etilgan. Respublika ma‘muriy jihatdan 7 ta muzofot: Toshkent, Samarqand, Farg‘ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm [19] hamda 31 ta uezdga bo‘lindi [20].

O‘zbekiston SSR quyidagicha chegaralandi: Shimolda Qozog‘iston jumhuriyatiga tutashgan. (Buxoroning ilgari Qozog‘iston bilan bo‘lgan chegarasiga ilgari Jizzax uezdining chegarasiga hamda Mirzacho‘l va Toshkent uezdlari chegarasiga tutashdi). Sharqda Qoraqirg‘iz muzofotining chegarasiga (Andijon, O‘sh, Farg‘ona hamda Qo‘qon uezdlari chegarasiga) ham Tojikiston jumhuriyatining chegarasiga ya‘ni Turkiston tog‘lari bo‘ylab Buxoroning Sariosiyo viloyatining ilgari chegarasiga tutashdi. Janubda Afg‘oniston chegarasiga Amudaryo bo‘ylab tutashdi. G‘arbda Amudaryo bo‘ylab Turkmaniston jumhuriyatining chegarasiga tutashdi [21].

Xulosa. Bolsheviklar Turkiston mintaqasini parchalishi oqibatida qadimiy ildizlari bir bo‘lgan xalqlardan sovet namunasidagi respublikalar tashkil etildi. Mazkur respublikalar markazning xomashyo yetkazib beruvchi hududlariga aylantirildi. Yangidan tashkil qilingan respublika va viloyatlar iqtisodiy-ijtimoiy tomondan bir-biriga bog‘langan edi. Shu nuqtai nazardan O‘rta Osiyo respublikalari federatsiyasini tashkil qilish masalasi ham ilgari surilgan. Biroq bolsheviklar tomonidan turli vajlar bilan federatsiya tuzish g‘oyasi inkor etilgan. Sovet respublikalari tuzilgandan so‘ng, milliy kadrlar va ziyolilar davlat boshqaruvi tizimida hamda kommunistik partiya saflarida ishlab turgan bo‘lsalar-da, ular Turkiston mustaqilligi va birligi g‘oyasi atrofida birlashgan edilar. Bolsheviklarning mustamlakachilik siyosati va mafkurasiga qarama-qarshi turishning hal qiluvchi omili, Turkiston mintaqasi miqyosida shiddat bilan ko‘tarilgan jadidchilik, muxtoriyatchilik va istiqlolchilik harakatlarining yagona birlashtiruvchi kuchi bo‘lib maydonga chiqqan ziyolilar edi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘rta Osiyoni milliy chegaralarga qarab bo‘lish // “Turkiston” gazetasi. 1924-yil 26-iyun. 297-son. (The Division of Central Asia along National Borders // “Turkiston” Newspaper. June 26, 1924. Issue No. 297.)
2. O‘rta Osiyoning milliy jumhuriyatlarga bo‘linishi to‘g‘risida musoxabalar. Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyati Nozirlar Sho‘rosining Raisi o‘rtoq Fayzulla Xo‘jaev // “Turkiston” gazetasi. 1924-yil 24-avgust. 335-son. (Interviews on the Division of Central Asia into National Republics. Chairman of the Council of People’s Commissars of the Bukhara People’s Soviet Republic, Comrade Fayzulla Khodjaev // “Turkiston” Newspaper. August 24, 1924. Issue No. 335.)
3. Milliy chegaralarga bo‘linish hamda Turkiston paxtachilik shirkati // “Dehqon” jurnali. 1925-yil yanvar. 1-son. –B.35. (National-Territorial Delimitation and the Turkestan Cotton Company // “Dehqon” Journal. January 1925. Issue No. 1. p. 35.)
4. Eski Toshkentda 5-dekabr tantanasining plani // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1924-yil 5-dekabr. 1-son. (Plan of the December 5 Celebration in Old Tashkent // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. December 5, 1924. Issue No. 1.)
5. O‘zbekiston jumhuriyatining e‘lon qilinish bayrami // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1924-yil 7-dekabr. 2-son. (Celebration of the Proclamation of the Republic of Uzbekistan // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. December 7, 1924. Issue No. 2.)
6. O‘zbekiston ijtimoiy sho‘rolar jmhuriyati inqilob qo‘mitasi raisi o‘rtoq Fayzulla Xo‘jayevga // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1924-yil 7-dekabr. 2-son. (To Comrade Fayzulla Khodjaev, Chairman of the Revolutionary Committee of the Uzbek Socialist Soviet Republic // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. December 7, 1924. Issue No. 2.)
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-87-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 3 – 9-varaqlar. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-87, Inventory 1, File 10, Sheets 3 – 9.)
8. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-87-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 100-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-87, Inventory 1, File 10, Sheet 100.)
9. Sajen – bu uzunlik o‘lchov birligi hisoblanib, 1 sajen 2,16 metrga tengdir. (Sazhen is a unit of length measurement; 1 sazhen equals 2.16 meters.)
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-87-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 99-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-87, Inventory 1, File 10, Sheet 99.)

11. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-87-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘ma jild, 99-99-varaqning orqasi. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-87, Inventory 1, File 10, Sheet 99)
12. O‘zbekiston (O‘rtoq Islomov bilan suhbat) // “Turkiston” gazetasi. 1924-yil 14-noyabr. 396-son. (Uzbekistan (Interview with Comrade Islamov) // “Turkiston” Newspaper. November 14, 1924. Issue No. 396.)
13. O‘zbekiston hukumati yangi markazga ko‘chishi munosabati bilan // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1925-yil 2-aprel. 94-son. (On the Relocation of the Government of Uzbekistan to a New Center // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. April 2, 1925. Issue No. 94.)
14. O‘zbekiston xalqiga yangi markaz qutlug‘ bo‘lsin. Markaziy hukumatimiz Samarqandga ko‘chib bordi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1925-yil 5-aprel. 96-son. (Congratulations to the People of Uzbekistan on the New Capital. Our Central Government Has Moved to Samarkand // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. April 5, 1925. Issue No. 96.)
15. O‘zbekiston xalqiga yangi markaz qutlug‘ bo‘lsin. Markaziy hukumatimiz Samarqandga ko‘chib bordi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1925-yil 5-aprel. 96-son. (Congratulations to the People of Uzbekistan on the New Capital. Our Central Government Has Moved to Samarkand // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. April 5, 1925. Issue No. 96.)
16. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2394-yig‘ma jild, 83-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-86, Inventory 1, File 2394, Sheet 83.)
17. Murabba’ – arab tilidan olingan bo‘lib, to‘rt tomon degan ma‘noni anglatadi. Ushbu o‘rinda metrologik jihatdan kvadrat ma‘nosini ifodalaydi. (Murabba is a term of Arabic origin meaning “four-sided”; in this context, it is used metrically to denote a square unit.)
18. O‘zbekiston. (O‘rtoq Islomov bilan musoxaba) // “Turkiston” gazetasi. 1924-yil 14-noyabr. 396-son. (Uzbekistan (Interview with Comrade Islamov) // “Turkiston” Newspaper. November 14, 1924. Issue No. 396.)
19. O‘zbekiston inqilobiy sho‘rolar jumhuriyatining qisqa jo‘g‘rofiyasi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1924-yil 5-dekabr. 1-son. (A Brief Geography of the Uzbek Revolutionary Soviet Republic // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. December 5, 1924. Issue No. 1.)
20. O‘zbekiston Milliy arxivi, R-87-fond, 1-ro‘yxat, 9-yig‘ma jild, 74-varaq. (National Archives of Uzbekistan, Fund R-87, Inventory 1, File 9, Sheet 74.)
21. O‘zbekiston inqilobiy sho‘rolar jumhuriyatining qisqa jo‘g‘rofiyasi // “Qizil O‘zbekiston” gazetasi. 1924-yil 5-dekabr. 1-son. (A Brief Geography of the Uzbek Revolutionary Soviet Republic // “Qizil O‘zbekiston” Newspaper. December 5, 1924. Issue No. 1.)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000